

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

6-maxsus  
son (5-jild)

**2025**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING  
DOLZARB MUAMMOLARI**

*№ 5/6 (5) - 2025*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

#### *12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy

kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### *13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

#### *19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

*22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

## **OAK Ro‘yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

## **Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

## **Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Норов Шухрат Сувонович</i> ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЫХ ЛЮДЕЙ ПРИ УЧАСТИИ МОЛОДЁЖНЫХ ОРГАНИЗАЦИИ .....	8-13
<i>Jo'raqulov Boburmirzo, Masidikov Elyor</i> TUNKAT YODGORLIGIDAN TOPILGAN O'RTA ASRLAR OILAVIY HAMMOMI .....	14-19
<i>Allaberganova Ro'zigul</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA URGANCH SHAHRI QIYOFASINING O'ZGARISHI .....	20-23

### 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Dr. Abror Kucharov and Dr. Jyoti Meshram</i> INFRASTRUCTURE DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN: A CATALYST FOR INDIAN INVESTMENT .....	24-38
<i>Raximbayev Akmal Azatboyevich</i> HUDUDLARDA SANOAT AGLOMERATSİYALARINI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI VA IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRINI BAHOLASH .....	39-46
<i>Mamajonova Nodiraxon Alisher qizi</i> QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI .....	47-57
<i>Xasanova Dildora O'ktam qizi</i> QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIGA IXTISOSLASHGAN XO'JALIK VA KORXONALAR FAOLIYATIDA ISHLAB CHIQRISH .....	58-71

### 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Абдусамтарова Сумора</i> ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА СОЦИУМ: ФИЛОСОФСКО-ПРАВОВОЕ ОСМЫСЛЕНИЕ .....	72-78
<i>Kubatov Shahobjon</i> UYG'UNLIK G'OYASI VA IJTIMOIIY DAVLAT HAQIDAGI TA'LIMOTLARNI SINTEZ QILISH MASALALARI .....	79-88
<i>Uralov Dilshodbek</i> ON HUMAN MORALITY AND PROFESSIONAL CULTURE IN THE ETHICAL VIEWS OF IBN SINO .....	89-93
<i>Tagaev Kamol</i> YANGI O'ZBEKISTONDA RAHBARLARNI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOIIY LOYIHALARNING STRATEGIK AHAMIYATI .....	94-99
<i>Xaydarova Zebiniso Nusratullayevna</i> EMPIRIZM, RATSIONALIZM VA KONSTRUKTIVIZM KABI TURLI EPISTEMOLOGIK NAZARIYALARDA INSON MAVJUDLIGI MASALALARI .....	100-106
<i>Mamadiyarova Malika</i> OILAVIY QADRIYATLARNING METODOLOGIK VA NAZARIY ASOSLARI .....	107-111
<i>Xolova Umida Umedovna</i> MA'RIFAT VA MA'NAVIYAT UYG'UNLIGINING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI: TARIXIY-FALSAFIY TAHLIL .....	112-118

### 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Baxramova Dilovarxon Gazanfarovna</i> O'ZBEK VA ISPAN TILLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI.....	119-122
---	---------

<i>Qozoqboyeva Dilfuzaxon Ilxomjon qizi</i> GENDER STEREOTYPES OF SPEECH OF UZBEK CHILDREN .....	123-128
<i>Pulatjonova Muxtasar</i> POLITENESS STRATEGIES IN ENGLISH AND UZBEK: A PRAGMATIC AND CROSS-CULTURAL COMPARISON .....	129-132
<i>Chernova Natalya Vasiliyevna</i> RUS BOLALARNING NUTIQA GENDERGA OID BELGILARNI SHAKLLANISHNING LINGVISTIK MEXANIZMLARI .....	133-136
<b>12.00.00 – YURIDIK FANLAR</b>	
<i>Komilov Avazbek</i> PROKURATURA ORGANLARI TOMONIDAN PROKUROR HUQUQIY VOSITALARINI QO‘LLASH BO‘YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	137-146
<i>Rasulov Jurabek Abdusamiyevich</i> XALQARO HUQUQ INQIROZI: ZO‘RIQISH OSTIDAGI TIZIM .....	147-152
<i>Nishonov Abdulloh</i> ATOM ENERGIYASIDAN FOYDALANISH JARAYONIDA OBYEKT LARNI JOYLASHTIRISHDA XALQARO EKOLOGIK NORMALARNING HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNING MILLIY QONUNCHILIKKA INTEGRATSIYASI.....	153-159
<i>Yusupdjanova Gulnoza Ilxomovna</i> JINOYAT PROTSESSIDA SUDNING FUNKSIYASI .....	160-167
<i>Tursoatov Sodiq Xudoyor o‘g‘li</i> YUKSAK XIZMAT KO‘RSATISH TUSHUNCHASI VA UNING O‘ZBEKISTON QONUNCHILIGIDA IFODALANISHI MASALALARI.....	168-174
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o‘g‘li</i> MAHALLIY BUDJETNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING ILMIY-NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI .....	175-179
<i>Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ОБРАЗЦЫ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ: ПОНЯТИЕ И ПРАВОВАЯ СУЩНОСТЬ .....	180-193
<i>Узбекова Дильшода Тулкиновна</i> КЛАССИФИКАЦИЯ МЕР ПРОЦЕССУАЛЬНОГО ПРИНУЖДЕНИЯ .....	194-202
<i>Norboyev Bobur</i> LEGAL FRAMEWORKS FOR DIGITAL TECHNOLOGY APPLICATION IN LAND CADASTRE: INTERNATIONAL EXPERIENCES AND PRACTICES IN UZBEKISTAN .....	203-211
<i>Gafurova Shoiraxodirovna</i> XALQARO JINOYAT HUQUQIDA DALILLAR INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI .....	212-216
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Erkaboyev Oybek Muxammadjonovich</i> HARBIY XIZMATGA TAYYORGARLIK BOSQICHIDA O‘QUVCHILARNING JISMONIY SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVLAR: JISMONIY TARBIYA VA CHAQIRUVGA QADAR TAYYORGARLIK ASOSIDA.....	217-221
<i>Kamalova Dilnavoz, Shomurodova Shahzoda</i> KINEMATIKADAN OLIMPIADA MASALALARI: KINEMATIK MASALALARDA YUQORI DARAJALI YECHIM YONDASHUVLARI .....	222-227

**Received:** 5 July 2025  
**Accepted:** 20 July 2025  
**Published:** 30 July 2025

*Article / Original Paper*

## **LEGAL BASIS OF INTERNATIONAL ENVIRONMENTAL STANDARDS IN THE SITUATION OF FACILITIES IN THE PROCESS OF USING ATOMIC ENERGY AND THEIR INTEGRATION INTO NATIONAL LEGISLATION**

**Nishonov Abdulloh**

Tashkent State Law University  
Teacher of the “Department of Ecological Law”  
Doctor of Philosophy in Legal Sciences PhD

**Abstract.** Through this article, we will discuss the extent to which nuclear energy is currently being used by the developing countries of the world, the methods of their generation and the extent to which the requirements set by the international ecology are observed, as well as the International Atomic Energy Agency, which regulates this field. , we have explained its regulatory areas, administrative structure and administrative management, as well as the attitude to this area in our country and the scientific research conducted on them.

**Keywords:** nuclear energy, international environmental requirements for nuclear energy, International Atomic Energy Agency (IAEA).

## **ATOM ENERGIYASIDAN FOYDALANISH JARAYONIDA OBYEKT LARNI JOYLASHTIRISHDA XALQARO EKOLOGIK NORMALARNING HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNING MILLIY QONUNCHILIKKA INTEGRATSIYASI**

**Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o‘g‘li**

Toshkent davlat yuridik universiteti  
“Ekologiya huquqi kafedrası” o‘qituvchisi  
yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD,  
E-mail: [abdullohnishonov007@gmail.com](mailto:abdullohnishonov007@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqola orqali hozirgi kunda dunyoning rivojlangan davlatlari tomonidan atom energiyasidan qay darajada foydalanayotganligini, ularni hosil bo‘lish usullarini va xalqaro ekologiya tomonidan qo‘yilgan talablarga qanchalik rioya qilinishini, shuningdek, ushbu sohani tartibga soluvchi “Atom energiyasi bo‘yicha xalqaro agentlik”ni, soluvchi sohalari, ma‘muriy tuzilishini va ma‘muriy boshqaruvini, hamda mamlakatimizda ushbu sohaga bo‘lgan munosabatini va ular bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlarini yoritib berganmiz.

**Kalit so‘zlar:** atom energiyasi, atom energiyasiga nisbatan xalqaro ekologik talablar, atom energiyasi bo‘yicha xalqaro agentlik (AEXA).

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI6Y2025N21>

### **KIRISH**

Hozirgi kunda dunyo mamlakatlari o‘z iqtisodini rivojlantirishga harakat qilayotgan bir davrda, boshqa tomondan davlatlardagi tabiiy resurs manbalari ham kundan-kunga kamayib borayotganligi hech kimga sir emas. Shuning uchun ham davlatlar iqtisodiy tomondan rivojlanish bilan bir qatorda o‘zining tabiiy boyliklarini asrab qolishi hamda ekologiyaga zarar yetkazmagan holda taraqqiyot cho‘qqisiga erishish kabi muhim vazifalarni bosh maqsad qilib qo‘ygan. Iqtisodiyot rivojlanishi natijasida ko‘plab zavodlar hamda fabrikalar qurila boshlandi.

Ulardan chiqayotgan turli zararli moddalar ekologiyaga juda katta zarar keltirmoqda. Bu esa eng avvalo inson salomatligiga jiddiy ta'sir etish hamda ekologiyaning buzilishiga, masalan, suv tanqisligi, o'rmon yong'inlari, cho'llanish va boshqa jarayonlarni yanada tezlanishiga sabab bo'lmoqda. Shu sababli butun dunyo bunga kurashish maqsadida turli xil amaliy-ilmiy ishlar, tadqiqotlar amalga oshirishmoqda va bunday tadbirlar natijasida ijobiy holatlar yuzaga kelayotganligiga guvohi bo'lmoqdamiz.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Avvalo shuni unutmasligimiz kerakki, bizning davrimizning eng jiddiy muammosi — bu bizga kerak bo'lgan energiya miqdorini boshqa ekologik muammolarni keltirib chiqarmasdan ta'minlash hisoblanadi. Ya'ni bunga chuqurroq to'xtaladigan bo'lsak, hozirgi kunda ko'plab davlatlarda shaharlarni urbanizatsiya jarayoni tezlashishi ya'ni, BMT ning Iqtisodiy va ijtimoiy masalar bo'yicha bo'limining tahliliga ko'ra, 2050-yilga kelib Yerdagi odamlarning taxminan 68% i shaharlarda yashashi kutilmoqda ekan.[1] Shu sababli ularni energiya bilan ta'minlash uchun davlatlar turli xil yo'llardan foydalanishga majbur bo'lishi shubhasiz. Bunga yaqqol misol sifatida, Hidro elektr energiyalarini olishimiz mumkin. Rivojlanayotgan davlatlarni GESlarni qurilishi energiya bilan bog'liq muammoni hal qiladi deb o'ylayotgan bir vaqtda ularning daryo suvlarining kamayishiga va buning natijasida ekologik muhitga juda katta zarar keltirishini tushunib yetishdi. Shu sababli ham, davlatlar nafaqat GES lar balki AES lar qurish orqali ekologiyaga zarari kam miqdorda bo'lish yo'llarini izlashmoqda.

Shuningdek, xalqaro hamjamiyati ham atom atom energiyasiga bog'liq bir necha chora-tadbirlar amalga oshirgan. Bunga yaqqol misol sifatida, Fennovoima Ltd ni olishimiz mumkin. Ushbu kompaniya Rossiya davlatining Rosatom atom kompaniyasi hamda Finlyandiya davlat energetika va sanoat kompaniyalari konsorimi tomonidan tashkil etilgan atom energetika kompaniyasi bo'lib, 2007-yilda tashkil etilgan. Ammo, u Pyhajokida 1200 MVt quvvatga ega hamda 2024-yilgacha Xanxikivi 1 atom elektr stansiyasini qurishmoqda. Bundan chiqayotgan quvvatni baholash va nazorat qilish uchun Atrof-muhitga ta'sirini baholash bo'yicha Akt mavjud. Ushbu aktni Bandlik va Iqtisodiyot vazirligi muvofiqlashtiruvchi organ hisoblanadi. Aktga ko'ra, atom energiyasini joylashtirish bo'yicha Atrof-muhit ta'siri baholanishi kerak bo'lgan talablar quyidagilar:

- inson salomatligi, turmush sharoiti va farovonligi;
- tuproq, suv, havo, iqlim, o'simliklar, tirik organizmlar va tabiatning xilma-xilligi,
- jamoa tuzilishi, binolar, landshaft, shahar manzarasi va madaniy meros,
- tabiiy resurslardan foydalanish va bu omillarning o'zaro bog'liqligi nazorat qiladi.

Bandlik va Iqtisodiyot vazirligi tomonidan bu loyihaga muvofiq prinsiplar ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, Fennovoima kabi kompaniyalar tashkil etilmoqchi bo'lsa, yuqoridagi organdan litsenziya olish talab etiladi. Litsenziya Himoya to'g'risidagi Akt, suv akti, shuningdek, yer va undan foydalanish akti va qurilish akti bo'yicha beriladi. Ushbu litsenziyaga asosan tashkil qilingan kompaniya faoliyat olib boradi hamda olib borilayotgan harakatlari yuzasidan bayot beradi hamda organ tomonidan qo'yilgan talablar bo'yicha nazorat qilinadi.[1]

Shuningdek, atom energiyasi bo'yicha bir qancha xalqaro konvensiyalar ham qabul qilingan. Xalqaro ekologik huquqda atom energiyasi bo'yicha hujjatlar. Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson muhiti bo'yicha konferensiyasi deklaratsiyasi (Stokgolm deklaratsiyasi,

1972) Atrof-muhitni muhofaza qilishning asosiy umumiy tamoyillarining aks ettirgan. O'shandan beri xalqaro shartnomalar soni o'sib bordi va bugungi kunda asosiy tashvishga solib turgan narsa — tegishli ishlarni amalga oshirishni muvofiqlashtirish vositalarini qanday ishlab chiqilishidir. Hisob-kitoblarga ko'ra, 900 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar atrof-muhitga qaratilgan.

Asosan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Stokgolmda bo'lib o'tgan inson muhiti bo'yicha konferensiyasida (1972) aniqlangan bo'lsa, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha konferensiyasi, Rio-de-Janeyro (1992) oxirgi natija bo'lgan.

Ushbu deklaratsiya atrof-muhitni rivojlanish bo'yicha asosiy metodologik tamoyillari uchun asos bo'lib, atrof-muhitni muhofaza qilish uchun amalga oshirish vositalarini belgilash orqali atrof-muhitni muhofaza qilish yaxshi usul sifatida belgilanadi. Eng yaxshisi sifatida jamoatchilik ishtiroki tan olingan va u asosiy g'oya deb e'tirof etilgan.

Bundan tashqari, boshqa konvensiyalarga ham to'xtalsak, Xalqaro atom energiyasi agentligining (MAGATE) 1963-yildagi "Vena konvensiyasi" (1977-yildan kuchga kirgan)[3], Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) 1960 yildagi "atom energetikasi sohasida uchinchi shaxslarning javobgarligi to'g'risida"gi Parij konvensiyasi (1968-yildan kuchga kirgan)[4], 1963-yildagi Bryussel qo'shimcha konvensiyasi[5], "Yadroviy zarar uchun qo'shimcha kompensatsiya to'g'risida"gi konvensiya[6], Radioaktiv moddalarni xavfsiz tashish qoidalari va boshqa shu kabi xalqaro konvensiyalar shuningdek, davlatlar o'rtasida tuzilgan xalqaro shartnomalar "Markaziy Osiyoni yadro qurolidan holi zonaga aylantirish bo'yicha" Shartnoma[7], "Janubi-Sharqiy Osiyo yadro qurolidan xoli hudud (SEANWFZ) shartnomasi"[8] (Bangkok shartnomasi va boshqalar) va davlatlarning ichki normativ-huquqiy hujjatlarini keltirishimiz mumkin. Yuqorida ko'rib turganimizdek, bu soha bo'yicha 10 ga yaqin xalqaro konvensiyalar qabul qilingan va biz bu orqali bu soha hozirda yetakchi rolda ekanligini ko'rishimiz mumkin. Atom energiyasini joylashtirish bo'yicha xalqaro ekologik talablarga Atom energiyasi agentligi tomonidan qo'yilgan talablarni olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shuningdek, MAGATE aynan atom energiyasini joylashtirishni atrof-muhitga ta'siri bo'yicha ishlab chiqqan. Unga ko'ra, nizomning III.A va VIII.C moddalari shartlariga muvofiq ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar almashinuvini rivojlantirish va atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanish programmaning ustuvor vazifasi hisoblanadi. Yadro energetikasi dasturini yaratishda kirishuvchi davlatlar o'zlarining qonuniy va me'yoriy-huquqiy baza dasturning o'ziga xos xavfsizlik va ekologik jihatlarini moslagan holda amalga oshiradi.

Hozirda atrof-muhitga oid qonunlar va qoidalarni ishlab chiqish yoki to'ldirish kerak bo'lmoqda, buni zamon talab etmoqda. Bundan tashqari,

Yangi kelgan davlatlar ekologik qonunlarni amalga oshirish uchun tashkilot tomonidan belgilab qo'yilgan qoidalarga amal qilishini ta'minlashi kerak va atom energetikasi dasturiga taalluqli barcha talablarga yetarli texnik imkoniyatlarga asoslangan holda aniq javobgarlikni oladi.

Atom elektr stansiyasini qurish paytida to'g'ridan-to'g'ri muhim ta'sirlarni tuproq, tub jinslar, yer osti suvlari, o'simlik va hayvonot dunyosi, yerdan foydalanish va landshaft, shovqin, havo sifati, odamlar va jamiyatga beradi. Shu o'rinda, Potensial ta'sirga olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: lekin ular bilan cheklanmaydi:

- (i) materiallarni safarbar qilish;
- (ii) Inson resurslari;

- (iii) tayanch lagerni qurish;
- (iv) ustaxona binosi;
- (v) yerni tayyorlash, kesish va to'ldirish;
- (vi) loyiha materiallarini tashish;

(vii) Qurilish. Eng ayanchlisi bu bilan cheklanmaydi. Shu sababdan ham yangi atom energiya stansiyasini qurmoqchi bo'lganlar ushbu programma orqali nazorat qilinadi hamda ish rivoji bo'yicha tafsilotlar beradi. Bu orqali yuqoridagi resurslarga ta'sirini kamaytirish hamda kelajakda yomon o'zgarishlarga olib kelmaslik ko'zda tutilgan[9].

### **Xalqaro atom energiyasi agentligi (MAGATE)**

**MAGATE (AEXA- Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik)** 1957-yilda atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanish sohasida mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan. Agentlik boshidanoq Yadro xavfsizligi va atrof-muhitni muhofaza qilish dasturini amalga oshirib kelmoqda. O'z navbatida bu tashkilot butun dunyodagi atom energiyasidan foydalanishni huquqiy jihatdan tartibga solib kelmoqda.

Shuningdek, eng muhim funksiyasi sifatida yadro sohasidagi mamlakatlar faoliyatini nazorat qilish hisoblanadi. Tashkilot atom energiyasini ishlab chiqish va ishlatish faqat tinch maqsadlarda amalga oshirilishini nazorat qiladi. Ushbu dasturning maqsadi esa atom energiyasidan xavfsiz foydalanishni ta'minlash, odamlar va atrof-muhitni radiatsiya ta'siridan himoya qilishdir. Bu organning tarixiga to'xtaladigan bo'lsak, AEXA (MAGATE) — atom energiyasidan foydalanish bo'yicha hukumatlararo tashkilot, BMTning Nyu-York konferensiyasi qaroriga binoan tashkil etilgan. Nizomi 1956-yil sentyabrda qabul qilinib, 1957-yil 29-iyulda kuchga kirgan. Bosh qarorgohi — Vena shahri (Avstriya)da. AEXAga 114 mamlakat (1997-yil) a'zo. AEXA maxsus tashkilotlar qatoriga kirishiga qaramay, alohida maqomga ega emas. BMT bilan uning aloqalari 1957-yil 14 noyabrda BMT Bosh Assambleyasi bilan imzolangan bitimga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu bitim va AEXA Nizomiga asosan agentlik har yilda kamida bir marta faoliyati to'g'risida BMT Bosh Assambleyasi yoki zarurat paydo bo'lganda uning Xavfsizlik Kengashi oldida hisobot beradi. Agentlikning asosiy maqsadi atom energiyasidan tinchlik yo'lida foydalanish sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdan iborat. Turli mamlakatlarda o'z ilmiy tadqiqot laboratoriyalari bor. AEXA rivojlanayotgan davlatlarga yadro xavfsizligi va radiatsion himoya uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar bilan yordamlashadi[10].



AEXA quyidagi sohalarni tartibga solib kelmoqda :

- qurol-yarog' ishlab chiqaradigan yadro texnologiyasini qattiq nazoratga olish;
- yadro energetikasi sohasida yordam ko'rsatish;
- radioaktiv chiqindilarni to'g'ri va xavfsiz ko'mish;
- shu sohaga oid Norma va Qoidalarni ekspert-yuristlar yordamida tayyorlash;
- ilmiy tadqiqot dasturlarini qo'llab-quvvatlash;
- avariyalarga oid dasturlar ishlab chiqish;
- qishloq xo'jaligida yadroviy usullar va radioaktiv moddalar yordamida hosildorlik va tuproq unumdorligini oshirish va boshqalar hisoblanadi. Agentlik, shuningdek, atom

energiyasini tinch maqsadlarda o'rganish, rivojlantirish va qo'llashni qo'llab-quvvatlaydi va agentlik a'zolari o'rtasida xizmatlar va materiallar almashinuvida vositachi sifatida ishlaydi.

AEXAning boshqaruv tizimiga keladigan bo'lsak, AEXAni bosh direktori hozirgi kunda Rafael Mariano Grossi boshqarib kelmoqda. Shuningdek bosh direktor o'rinbosarlari ham ma'muriy boshqaruvni amalga oshiradi. Tashkilotning muhim masalalari Umumiy konferensiya va Boshqaruv kengashi yig'ilishlarida ko'riladi[11].

Bu soha bo'yicha mamlakatimizda olib borilayotgan ishlarga to'xtaladigan bo'lsak, bir qancha qonun va qonunosti hujjatlarini keltirishimiz mumkin. Masalan, "Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish to'g'risida" gi O'RQ-565-sonli Qonun[12], Vazirlar Mahkamasining 2020-yildagi "Atom energiyasidan foydalanish sohasidagi faoliyatni litsenziyalash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi VMQ-663-sonli Qarori[13], "O'zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi[14] PF-5484-sonli Prezident Farmoni hamda boshqa shu kabi normativ-huquqiy hujjatlar orqali bu sohaning bizning davlatga qay darajada kirib kelganini guvohi bo'lishimiz mumkin.

O'zbekistonni bugungi kunda atom energiyasidan umuman holi hudud deb bo'lmaydi. Negaki, Respublikamiz atom energiyasi uchun kerak bo'ladigan boy mineral xomashyo bazasining mavjudligi 1956-yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutining tashkil etilishiga sabab bo'lganidan ko'rishimiz mumkin. Respublikamizda 1959-yildan buyon Yadro fizikasi institutida VVR-SM tadqiqot reaktoridan foydalanilib kelinmoqda va ushbu reaktorda hamda boshqa ishlab chiqarish obyektlarida hosil bo'ladigan radioaktiv chiqindilar Bo'stonliq tumanidagi saqlash punktiga joylashtirilmoqda.

Shuningdek, elektr energiya manbalarini oshirish maqsadida O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 10-iyul kuni mamlakatda atom elektr energiyasini barpo etish bo'yicha tashkiliy-texnik chora-tadbirlarni amalga oshirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi[15]. Bu yig'ilishdan asosiy maqsad elektr energiya kamchiliklarini AES orqali qoplash va IES lar iste'mol qilayotgan yerosti, yer usti boyliklarini tejash va ulardan oqilona foydalanish ko'zda tutilgan edi. Shu bois mamlakatda tinch maqsadlarda foydalanish uchun atom energetikasini barpo etishga kirishildi. Rossiyaning "Rosatom" davlat korporatsiyasi hamkorlikda atom elektr stansiyasini qurish bo'yicha kelishuvga erishildi. Ushbu yig'ilishda davlatimiz rahbari tomonidan Mamlakatimizda yangi bo'lgan ushbu sohaga doir normativ-huquqiy baza yaratish, "Atom energiyasidan foydalanish to'g'risida"gi qonun va tegishli qaror loyihalarini ishlab chiqish, ularning MAGATE talablari va xalqaro hujjatlarga muvofiqligiga alohida e'tibor qaratish zarurligi ta'kidlandi. Negaki, 2006-yilda Qozog'istonning Semipalatinsk shahrida imzolanib, 2009-yil 21-martda kuchga kirgan Markaziy Osiyoni Yadro qurolidan holi zonaga aylantirish to'g'risidagi xalqaro shartnomaning 3-moddasining a bandiga ko'ra a'zo davlatlar yadro quroli yoki boshqa yadroviy portlovchi qurilmalar bo'yicha tadqiqotlar o'tkazmaslik, ishlab chiqish, ishlab chiqarish, zaxiralash yoki boshqa yo'l bilan sotib olish, egalik qilish yoki nazorat qilish mumkin emas. Ammo, ushbu shartnomaning 7-moddasiga ko'ra atomdan tinch maqsadlarda foydalanishga ruxsat berilgan. Shunday ekan O'zbekistonda qurilayotgan AES MAGATE ning bir necha bor o'tkazgan izlanishlari hamda bergan xulosalari asosida birgalikda qurilmoqda.

## XULOSALAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, atom energiyasidan foydalanish va atom elektr stansiyalarini qurish ijobiy holatlar deb ayta olamiz. Sababi ushbu energiya boshqa elektr manbalariga qaraganda atrof-muhitga zarari kamroq hisoblanadi. Shuningdek, qurilayotgan AES xalqaro doiradagi standartlarga to'liq javob berishi ya'ni hududi seismografik hududda bo'lmasligi, zilzilaga va boshqa tabiat hodisalariga chidamli bo'lishi kerakligi, chegara hududidan hamda aholi zich joylashgan joylardan ancha uzoqda joylashishi kerakligi maqsadga muvofiq hisoblandi. Shu o'rinda, bu soha bo'yicha yuzaga keladigan har qanday holatga tayyor turishimiz eng asosiy vazifamiz desak yanglishmaymiz.

### Adabiyotlar/Literatura/References:

1. The Official website: IAEA (International atomic energy agency) Vienna convention on civil liability for nuclear damage 1963 Available at: <https://www.iaea.org/sites/default/files/infirc500.pdf> [Accessed on: 17.10.2022]
2. Environmental Impact Assessment Program for a Nuclear Power Plant, September 2013
3. The official website: NEA (Nuclear energy agency) The Organization for Economic Co-operation and Development's (OECD) Paris Convention on third party liability in the field of nuclear energy of 1960 Available at: [https://www.oecd-nea.org/jcms/pl\\_31788/paris-convention-full-text](https://www.oecd-nea.org/jcms/pl_31788/paris-convention-full-text) [Accessed on: 17.10.2022]
4. The official website: NEA (Nuclear energy agency) Brussels Supplementary Convention Available at: [https://www.oecd-nea.org/jcms/pl\\_31528/brussels-supplementary-convention-full-text](https://www.oecd-nea.org/jcms/pl_31528/brussels-supplementary-convention-full-text) [Accessed on: 17.10.2022]
5. The Official website: IAEA (International atomic energy agency) Convention on supplementary compensation for nuclear damage 1998 Available at: <https://www.iaea.org/sites/default/files/infirc567.pdf> [Accessed on: 17.10.2022]
6. The Official website: IAEA (International atomic energy agency) Regulations for the Safe Transport of Radioactive Material Available at: <https://www.iaea.org/publications/12288/regulations-for-the-safe-transport-of-radioactive-material> [Accessed on: 17.10.2022]
7. The official website: United Nations (Birlashgan Millatlar Tashkiloti) Treaty on a Nuclear-Weapon-Free Zone in Central Asia (CANWFZ) 2006. Available at: <https://treaties.unoda.org/t/canwfz> [Accessed on: 23.10.2022]
8. The official website: NTI, (Nuclear Threat Initiative) Southeast Asian Nuclear-Weapon-Free-Zone (SEANWFZ) Treaty (Bangkok Treaty) Available at: <https://www.nti.org/education-center/treaties-and-regimes/southeast-asian-nuclear-weapon-free-zone-seanwfz-treaty-bangkok-treaty/> [Accessed on: 23.10.2022]
9. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son
10. IAEA Nuclear Energy Series Technical Reports Guides Managing Environmental Impact Assessment for Construction and Operation in New Nuclear Power Programmes No. NG-T-3.11
11. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Atom\\_energiyasi\\_bo'yicha\\_xalqaro\\_agentlik](https://uz.wikipedia.org/wiki/Atom_energiyasi_bo'yicha_xalqaro_agentlik)
12. <https://www.iaea.org/es/el-oiea>
13. The official website: Lex.uz ( O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi) Atom energiyasidan foydalanish sohasidagi faoliyatni litsenziyalash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi Qaror. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi 26.02.2022-y., 09/22/88/0165-son
14. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 28.09.2020-y., 06/20/6075/1330-son
15. The official website: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Available at: <http://academy.uz/page/institut-adernoj-fiziki-akademii-nauk-respubliki-uzbekistan> [Accessed on: 23.10.2022]

16. The Official website: Office for Disarmament Affairs (BMT ning Qurolsizlanish bo'yicha shartnomalar ma'lumotlar bazasi) Treaty on a Nuclear-Weapon-Free Zone in Central Asia (CANWFZ) Available at: <https://treaties.unoda.org/t/canwfz> [Accessed on 24.10.2022]
17. The official website: BBC uzbek / Dunyo Chernobil halokatining 25 yilligini xotirlamoqda, Available at: [https://www.bbc.com/uzbek/world/2011/04/110426\\_latin\\_ukraine\\_chernobyl](https://www.bbc.com/uzbek/world/2011/04/110426_latin_ukraine_chernobyl) [Accessed on: 16.10.2022]

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 5/6 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).